


### Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-iyunida 1,6 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,9 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (17,4 %), sanoat tarmog'ida (15,9 %), qurilishda tarmog'ida (13,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (16,3 %), yashash va ovqatlanishda (4,4 %), tashish va saqlashda (2,5 %) tashkil etilgan.


**2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha ulushi**



**2018 yilning yanvar-iyunidahududlarbo'yichakichik  
tadbirkorliksub'yektlarining soni (har1000 aholiga, birlikda).**



**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni  
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyunholatiga.**



2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,7 birlikda bo'lib, 2017 yilda 12,5 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 13,2 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 2 birlik yuqori.

### 2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi (% da)

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Qashqadaryov viloyati	<b>20,2</b>	<b>83,9</b>	<b>71,0</b>
Qarshi sh.	57,5	74,6	49,3
Shaxrisabz sh.	61,0	75,6	86,4
tumanlar			
G'uzor	2,2	96,2	82,7
Dehqonobod	10,6	100,0	97,9
Qamashi	47,9	100,0	99,1
Qarshi	23,2	98,1	95,6
Koson	23,4	50,4	98,1
Kitob	100,0	98,2	97,0
Mirishkor	20,9	100,0	98,6
Muborak	1,4	82,5	53,8
Nishon	4,8	94,8	98,6
Kasbi	23,2	98,8	91,4
Chiroqchi	83,5	96,8	99,5
Shaxrisabz	66,9	100,0	87,8
Yakkabog'	87,5	98,1	97,9

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kitob (100,0 %), Yakkabog' (87,5 %), va Chiroqchi (83,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Dehqonobod (100,0 %), Qamashi (100,0%), Mirishkor (100,0 %) va Shaxrisabz (100,0%), tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Chiroqchi (99,5 %), Qamashi (99,1 %), Nishon (98,6%), Mirishkor (98,6%), va Koson (98,1 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1315,2 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 20,2 %) yoki 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 107,4 %ni tashkil qildi;

– 336,8mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 8,0 %), o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 129,4 %ni tashkil qildi;

– 1355,9 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 83,9 %), bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati (112,1 %) ni tashkil qildi;

– 2247,2mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 71,0 %), 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati (102,4 %), ni tashkilqildi;


– chakana Tovar aylanmasi umumiy hajmining 86,5 % 3997,0mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 1,3 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 76,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 50,2 %) miqdorida mahsulotlar (Tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 48,7mln. AQSh dollariga yoki 177,7 % ga ko`p;

– avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,6 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 85,6 %) ko`payishi ta`minlandi;


–yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 %ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 95,2 % ) ko`payishi ta`minlandi;

### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



■ yanvar-iyun 2017 y. ■ yanvar-iyun 2018 y.


## 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi sh. (455,9 mlrd.so'm), Kitob (115,3 mlrd. so'm) va Shahrisabz (89,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqonobod (18,7 mlrd.so'm) va Mirishkor tumanlarda (26,0 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




## 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi sh. (803,6 mlrd.so'm), Koson (412,7 mlrd.so'm), Chiroqchi (363,0 mlrd.so'm), va Qamashi (300,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



### 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Qarshi shahri (756,9 mlrd. so'm), Koson (177,4 mlrd.so'm) va Chiroqchi (145,9 mlrd .so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 45 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 72,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 24,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 68,3 % va 27,2 %, xizmatlar sohasida – 71,3 % va 27,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 54,0 % va 41,3 %, sanoatda – 76,3 % va 21,6 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 2,1 %, qurilishda – 4,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 4,7 %, xizmatlarda – 0,8 % va savdoda – 4,5 %ni tashkil qildi.


## Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II–chorak uchun, %



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 96,9 % sanoat korxonalari, 96,6 % – savdo, 89,1 % – xizmatlar, 92,1 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 93,6 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.



### Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.